

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.O.Ikromova Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari” qissasi nutq shakllarini tarjima qilishning psixolingvistik xususiyatlari	128
Ш.М.Артикова Сопоставление стратегий вежливости и культурных установок в англосаксонском и узбекском семейном дискурсе.....	136
G.A.Komilova Siyosiy nutqlarda ishonitirish strategiyalarining lingvistik tahlili.....	145
M.T.Ikromov Botanik terminlarning etnomadaniy tadqiqi.....	149
U.H.Usmonova O'zbek, rus va ingliz tillaridagi fe'l frazeologik birliklarning struktur-semanatik va lingvokulturologik tadqiqi	154
U.M.Askarova Gapda uyushiq bo'laklarning o'rni va ahamiyati (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida).....	158
Sh.Kh.Sayidov, N.M.Nabijonova The intersection of paralinguistics and sociolinguistics.....	163
M.Y.Mamajonov, F.A.Bekmuxamedova Inglizcha va o'zbekcha maqollar asosida lingvokognitiv tahlil	166
Sh.Sh.Dadabayeva Aksiologikadagi asosiy jarayonlar	171
Sh.Sh.Dadabayeva Axloqiy-fuqaroviy qadriyatlarni ifodalovchi aksiologik leksikalar tadqiqi	175
L.T.Galimullina, K.M.Akramova The semantics of verbal phraseological units and their evaluative emotive peculiarities in the English and Russian languages	179
X.A.Baymanov, M.M.Soatova Hajviy matnlarni tarjima qilishning kognitiv-pragmatik xususiyatlari	184
Sh.R.Karimjonova Kognitiv tilshunoslik: asosiy yondashuvlar va tushunchalar	188
L.T.Galimullina, N.F.Salakhutdinova Some issues in the antonymy of phraseological units in the english language	195
Р.Сулейманова Историческая лексика тюркских языков: морфосемантическое и этимологическое исследование корневых слов	199
A.Sh.Mukhamadiev Aggression as a form of speech influence in the literature of the uzbek and english languages ..	203
S.Z.Hemidli Metaphorization in the mythological lexicon of english and azerbaijani languages (comparative-historical typological linguistics).....	209
X.U.Qodirova Nutqiy etiket va milliy-madaniy identikasiya: ingliz tili konteksti misolida	215
Д.Б.Хамидова Влияние языка на формирование специализированной терминологии	218
G.A.Zaynutdinova O'zbek tilshunosligida lingvopoetika umumfilologik yo'nalish sifatida	222
R.Kahramanova Lexical and grammatical features of kinship terms in azerbaijani dialects	227
A.M.Aimuxammetova Ingliz va qoraqalpoq tilshunosligida numerativ birliklarning o'rganilish tarixi	231
N.Q.Adamboyeva Non-traditional language learning methods and brain activity	234
D.S.Usmonova, N.R.Rajabova Ingliz tili o'rganishda gamifikatsiya: motivatsiya va faollikni oshirish	237
M.T.Raxmonqulova Tilshunoslikda “Konsept” va “Konseptosfera” tushunchalari talqini	241



UO'K: 811.511.1:81.3+82-1+81.2

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LINGVOPOETIKA UMUMFILOLOGIK YO'NALISH SIFATIDA**ЛИНГВОПОЭТИКА КАК ОБЩЕФИЛОЛОГИЧЕСКОЕ НАПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ****LINGUOPOETICS AS A GENERAL PHILOLOGICAL DIRECTION IN UZBEK LINGUISTICS**

Zaynutdinova Gulnoza Anvarjon qizi 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlarning tadrijiy rivoji haqida so'z yuritiladi. O'zbek filologiyasida lingvopoetikaning umumfilologik yo'nalish sifatidagi o'rni va ahamiyati ochib beriladi.

Аннотация

В данной статье говорится о постепенном развитии лингвопоэтических исследований в узбекском языкознании. Раскрыты роль и значение лингвопоэтики как общефилологического направления в узбекской филологии.

Abstract

This article talks about the gradual development of linguopoetic research in Uzbek linguistics. The role and importance of linguopoetics as a general philological direction in Uzbek philology is revealed.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, badiiy til, lingvopoetik tadqiqot, lingvistik poetika, lisoniy tahlil, N.Mahmudov, S.Karimov

Ключевые слова: языкознание, художественный язык, лингвопоэтические исследования, лингвопоэтика, лингвистический анализ, Н. Махмудов, С. Каримов.

Key words: linguistics, artistic language, linguopoetic research, linguistic poetics, linguistic analysis, N. Mahmudov, S. Karimov

KIRISH

O'zbek filologiyasida lingvopoetikaning ilmiy-nazariy asoslari to'laqonli shakllangan bo'lib, o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida badiiy asarning obrazli nutqni, badiiy tilning cheksiz imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi eng muhim vosita sifatida o'rganilishiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'zbek filologiyasi tarixida badiiy asar tilini o'rganish, til masalalariga alohida e'tibor qaratish masalalari alohida o'rin egallagan. Birgina Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari bu borada nodir namuna sifatida baholanadi. Tilshunos M.Qodirovning "Muhokamat ul-lug'atayn"ning biz tilshunos va adabiyotshunoslarga o'rnak bo'ladigan bir xislati bor. Navoiy asarda til masalalarini adabiyotdan – badiiyatdan ajratib alohida holda tekshirmaydi, tildagi xususiyatlarni badiiy nutq talabiga evirgan holda ko'radi. Agar bu asarni chuqurroq o'rganib chiqsak, hozirgi til va adabiyot ilmidagi kemtiklikning sabablarini seza boshlaymiz" [9.27]degan mulohazasi ayni haqiqatdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tilshunosligida I.Qo'chqortoyev, R.Qo'ng'urov, A.Shomaqsudov, Sh.Shoabdurahmonov, Q.Samadov, N.Mahmudov, B.Yo'ldoshev, S.Karimov, B.Umurqulov kabi olimlar badiiy asar tili va uning lingvistik va poetik tahlili masalalari alohida e'tibor qaratishgan. So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida olib borilgan izlanishlarbadiiy asar tilini tadqiq etishda lingvopoetik yondashuvning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. "Tadqiqotlarning ba'zilar masalaning umumiy tomonlariga, ayrimlari tanlab olingan ijodkor asarlari tiliga, ayrimlari esa badiiy nutq stilistikasi masalalariga bag'ishlangani bilan xarakterlanadi" [11.22].

TILSHUNOSLIK

O'zbek filologiyasida lingvopoetikaning takomillashuvi badiiy til va badiiy nutqni tadqiq etadigan lingvistik poetika yo'nalishiga oid tadqiqotlarning yaratilishi bilan bevosita bog'liq, bu orqali lingvistik poetikaning o'rganish obekti va mundarijasining oydinlashishiga xizmat qildi. O'zbek tilshunosligida lingvopoetik aspektdagi ko'plab tadqiqotlar[7] mavjudki, ularda muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo'llashdagi o'ziga xosliklari aniqlashtirilgan.

Badiiy nutqning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etishda N.Mahmudov va S.Karimovlarning tadqiqotlari alohida o'rin tutadi[5]. O'zbek tilshunosligida lingvopoetika yo'nalishining nazariy asoslarini yaratishda M.Yo'ldoshev badiiy matnning lisoniy tahlili borasidagi tadqiqotlari [17] muhim o'rin tutadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sir emaski, mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlabga qadam qo'ygan kundan e'tiboran, til va adabiyot, san'at, madaniyatni rivojlantirish asnosida xalqimizning boy adabiy-badiiy xazinasini til nuqtai nazaridan tadqiq qilishning yetakchi tamoyillari ishlab chiqildi. "Hozirgi kunda o'zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida – davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san'at sohalarida faol qo'llanilmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda" [1]. Shu jihatdan olib qaraganda, yurtimizdagi shoir va yozuvchilar ijodining badiiy lisoniy qirralarini lingvopoetik aspektda tizimli tadqiq qilish o'zbek tilshunosligi oldidagi muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etildi. So'nggi yillarda badiiy matnning lingvistik tahliliga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar ko'lamining sezilarli darajada kengayib borayotgani e'tiborga molikdir.

"G.Keldiyorovanning "O'zbek badiiy nutqida antiteza" (2000), O.Mamaziyayevning "O'zbek poetik nutqida xiazm va gradatsiya" (2004), D.Shodiyevaning "Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi" (2007), A.Xaydarovning "Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari" (2008), "Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi" (2009), F.Ibragimovanning "Badiiy matnda ellipsis va antiellipsis" (2011), S.Maksudovanning "Erkin Vohidov asarlarida konnotativlikning ifodalanishi" (2012), O.Tursunovanning "O'zbek badiiy nutqining fonopoetik tadqiqi" (2018) singari tadqiqotlarida lingvistik poetika masalalari keng yoritib berilgan. Bu esa so'nggi yillarda tilshunoslikning lingvopoetika yo'nalishi o'zining rivojlanish maqomini olgani va mazkur yo'nalishda salmoqli ishlar yuzaga kelganini ko'rsatadi" [11]. Xyccyan, I.Mirzayev, Z.Hamidov, M.Yoqubbekova, S.Karimov, M.Yo'ldoshev, G.Yaxshiyeva, A.Abdullayev, I.Hojaliyev, D.Shodiyeva, O.Mamaziyayev, M.Abdupattayev, G.Muhammadjonova, M.Akbarova, A.Shofqorovlarning ilmiy ishlari o'zbek tilshunosligida badiiy asarlarning, ayniqsa, she'riy matnlarning lingvopoetik imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qildi. Masalan, "ularda, asosan, poetik nutqning fonetik, leksik va ayrim morfologik xususiyatlari, shuningdek, badiiy tasvir vositalari sifatida troplar va stilistik figuralarning o'ziga xos belgilariga urg'u berilgan. Jumladan, she'riy matnlarning lingvistik interpretatsiyasi (I.Mirzayev), badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari (M.Yo'ldoshev), o'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik belgi-xususiyatlari (M.Yoqubbekova), badiiy uslubning lingvistik belgilari (S.Karimov) yoritilgan. Shuningdek, badiiy nutqdagi parantez birliklar (D.Jamoliddinova), poetik individuallik (S.Umirova), poetik fonetika masalalari (O.Tursunova), o'zbek she'riyatining davriy lingvopoetik talqini (G.Muhammadjonova), ironik mazmun ifodalovchi usul-vositalari talqini (E.Ibragimova) yoki ma'lum bir ijodkorlar asarlari misolida M.Yusuf lingvopoetikasi (D.Shodiyeva), Usmon Azim ijodining lingvopoetik xususiyatlari (S.Umirova) tadqiq etildi" [2.8]. Mazkur monografik tadqiqotlar o'zbek filologiyasida lingvopoetika yo'nalishining taraqqiyoti va takomillashuvida munosib ahamiyati va o'rniga egadir.

S.Umirova lingvopoetik tadqiq usullari bo'yicha jahon va o'zbek tilshunosligidagi qarashlarni o'rganib, ularni umumlashtiradi: "Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, poetika va estetika fanlari uchun g'oyat muhim nazariy xulosalar berishga xizmat qiladigan badiiy matnning lingvistik tahlili kommunikativ-estetik vazifani bajaradigan individual til tizimini tadqiq etishga yo'naltirilgan lingvostilistik tajriba, semantik-stilistik, qiyosiy-stilistik, statistik-stilistik tahlil, kognitiv tahlil, badiiy usul lingvopoetikasi, lingvopoetik qiyoslash, lingvopoetik stratifikatsiya singari o'z tahlil metodlariga ega" [14.108]. Demak, bugungi kunda lingvopoetik tadqiqotlar o'zining keng qamrovligi va tahlil metodlariga egaligi bilan tilshunoslikda o'z o'rniga ega.

So'nggi yillarda badiiy nutq tadqiqi asosida amalga oshiriyotgan qator ilmiy izlanishlar lingvistika va poetikaga xos mushtarak muammolarni hal etishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ishlarda ma'lum davr yozuvchi va shoirlarining asarlari "tilning muayyan bir o'ziga xos sathlarida" tadqiq etishga e'tibor qaratilmoqda. Ularda, asosan, badiiy asarlarda qo'llanilgan til birliklari va ularning ifoda imkoniyatlari tadqiq etiladi va bu orqali badiiy asarlarda til birliklaridan foydalana olish darajasi ijodkorning uslubiy mahorati anglashiladi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni qayta tiklash va o'rganishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratildi. Buning natijasi o'laroq, sho'ro tuzumi yillarida ma'lum sabablarga ko'ra faqat bir tomonlama talqin qilib kelingan barcha mumtoz adabiyotimiz namoyandalari ijodi ilmiy tahlil qilinmoqda.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari adabiy manbalarining o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida tadqiq etilishi o'sha davr ijodkorlari poetik merosining til va uslub imkoniyatlari, asarlarining leksikasi, badiiy qimmatini kashf etish va baholash barobarida adabiyot namoyandalarining o'ziga xos mahoratini ham ochib berishga xizmat qilgan.

M.Yo'ldoshev "Badiiy matn lingvopoetikasi" nomli monografiyasida badiiy matnning lingvopoetik tahlil etishning ilmiy nazariy asoslarini atroflicha bayon etar ekan, uning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni belgilaydi:

1. Shakl va mazmun birligi.
2. Makon va zamon birligi.
3. Matn tilining umumxalq tili, uning turli ko'rinishlari va adabiy tilga munosabati.
4. Badiiy-estetik yaxlitlik, butunlik sifatida.

Albatta, bu tamoyillar vositasida badiiy asar tahliliga yondashuv birmuncha osonlashadi va oydinlashadi. Shuningdek, olim badiiy matn tahlili murakkab ekanligi va lingvopoetik tahlilning aniq bir modeli yaratilmaganligiga urg'u beradi.

Badiiy matn tahliliga oid salmoqli ishlar olib borgan B.Umurqulov badiiy asar tili xususiyatlarini o'rganishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni belgilaydi[15]:

- badiiy asar tilini lug'aviy-uslubiy, lingvomadaniy va lingvopoetik jihatdan o'rganish;
- badiiy nutqning emotsional-ekspressiv leksikasini tadqiq etish;
- muayyan xalqning badiiy adabiyoti tilini tahlil qilish;
- badiiy asarlarda uchraydigan turli nutq uslublariga xos so'zlarning matniy xususiyatlarini o'rganish;
- tasviriy vositalarning badiiy nutqning badiiy-obrazlilikini ta'minlash darajasini belgilash;
- badiiy matnlarni lingvopoetik tahlil qilish orqali ijodkor mahoratini ochib berish.

M.Qosimova tadqiqotida muayyan yozuvchining tildan foydalanish mahoratini tahlil qilish vazifasi qaysi yo'nalishga taalluqli: adabiyotshunoslik yoki tilshunoslikka, degan so'roqqa qaratilgan mulohazalar o'rganilgan. Qayt etiladiki, "tadqiqotchi istaydimi-istamaydimi, yozuvchining badiiy til mahoratini tekshirayotganda lingvistik tamoyillarga ham yondashishga majbur bo'ladi" [10.10].

Aytish kerakki, til va uslub, ijodkor mahorati, badiiy asar tili muammolari o'zbek tilshunosligining doimiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Olimlarimiz lingvopoetika yo'nalishidagi tadqiqotlarida badiiy matnning lisoniy xususiyatlari, badiiy nutqning poetik imkoniyatlari turli rakurslarda tadqiq etib kelmoqdalar. Xususan, Sh.Shoabdurahmonov, B.Turdialiyev, X.Abdurahmonov, B.Bafojev, Q.Samadov, L.Abdullayeva, S.Karimov, B.Umurqulov, I.Mirzayev, B.Yo'ldoshev, Y.Solijonov, G.Muhammadjonova, M.Yo'ldoshev, M.Yaqubbekova, D.Andaniyazova, D.Jamoliddinova kabi olimlarning izlanishlari lingvopoetikaning ilmiy nazariy asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, milliy tilshunosligimizda poetik nutqning til xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ham keng qamrovli izlanishlar olib borildi va salmoqli ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. O'rganishlar natijasida o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlangan lingvostilistik va lingvopoetik tadqiqotlar tasnifini quyidagicha belgiladik:

- stilistika, til va badiiy uslub masalalari;
- o'zbek mumtoz adabiyoti tilini o'rganish;
- xalq og'zaki ijodi lingvopoetikasi;
- nasriy asarlar lingvopoetikasi;

TILSHUNOSLIK

- she'riyat lingvopoetikasi;
- muayyan bir ijodkorning lingvopoetik mahorati va uslub individualligi kabi.

Shu o'rinda aytish kerakki, o'zbek tilshunosligida she'riyat lingvopoetikasi tadrijiy rivojlanish kasb etib bormoqda. Nasriy asar bilan bir qatorda, ijodkorlarning she'riy asarlarining lingvistik va poetik tahlili masalalariga e'tibor ancha kuchaydi. X. Egamovning «She'riy asar tilini o'rganish»[4] mavzusidagi asari bu borada ilmiy izlanishlarning nazariy asoslarini ko'rsatib bergan bo'lsa, B.Umurqulov «Poetik nutq leksikasi» [16] asari orqali mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning usul va o'rganish yo'llarini asoslab berdi.

Istiqlolning dastlabki yillarida I.Mirzayevning «Проблеми лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста» [8], N.Ahmedovning «O'zbek adabiyotida nasriy she'r» [3], G.Rixsiyevaning «She'riyatdagi gaplarning aktual bo'linishida anaforalar o'rni» [12], G.Muhammadjonovanning «80-yillar oxiri va 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi» [6], N.To'lanovanning «To'qsoninchi yillar o'zbek she'riyati tilidagi badiiy san'atlarning lisoniy-uslubiy tahlili» [13] mavzusidagi monografik ishlar yaratildi. Mazkur tadqiqotlar o'zbek she'riyatining lingvopoetik imkoniyatlari, ijodkorning so'z qo'llash mahorati kabi xususiyatlarini ochib berishga xizmat qildi.

O'zbek filologiyasida muayyan ijodkor asarlari poetika va badiiy mahorat qirralari nuqtayi nazaridan o'rganilgan salmoqli ishlar mavjudki, ular orasida M.Qo'shjonov, N.Rahimjonov, B.Norboyev, A.Sabirdinov, Sh.Hasanov, I.Yakubov G.Ashurova, H.Nusratova, M.Xolova, H.G'aipova, A.Nosirov, A.Qayumov, A.Abdurahmon, B.Hasanova, M.Davronova kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ilmiy manbalar hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davri barcha soha va yo'nalishlar qatori o'zbek she'riyati tarixida ham yangi bosqichni, yangi taraqqiyot odimlarini boshlab berdi. Aytish mumkinki, «Mustaqillik davri insonlarning psixologiyasi, ruhiy kechinmalarini, yangilanish ekinlari bilan bog'liq orzu-armonlarini o'zida mujassamlashtirdi va bundagi har bir satr, har bir so'z, uning ma'nosida, she'rdagi har bir element, ohangdorlik vositasida erk, mustaqillik, mustaqil fikrlash, vijdon erkinligi, ruhiy tozarish kabi masalalar goh ramziy, goh shundayicha ro'y-rost namoyon bo'ldi» [6.20]. Ayni shu jihat bugungi o'zbek tilshunosligidagi yangi ilmiy tadqiqotlarga keng yo'l ochdi va istiqlool davri o'zbek she'riyati, ayniqsa, bugungi zamonaviy o'zbek poeziyasining turli yondashuvlar asosida o'rganilishiga zamin yaratildi.

Ustoz Maqsud Shayxzoda «Nasr – og'ir karvon, she'r esa yugurik» deb ta'kidlagan edi. Chindan ham jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, yangilanishlar tilda, xususan, badiiy nutqda yaqqol namoyon bo'lganidek, hozirjavob she'riyatda to'laligicha aks etadi. Bu esa o'z navbatida aynan zamonaviy o'zbek she'riyatining lingvistik va poetik tadqiqi masalasiga alohida e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi. Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar bu borada qo'yilgan salmoqli qadamlar bo'lsa-da, she'riy matn, ayniqsa, zamonaviy o'zbek she'riyati tadqiqiga doir dissertatsion ishlarga ehtiyoj katta, deb ayta olamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги Қонун қабул қилинганлигининг ўттиз йиллигини нишонлаш тўғрисида»ги ПҚ-4479-сон Қарори. Lex.uzинтернет нашри. – 2019 йил, 5 октябрь.
2. Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Филол.фан.д-ри (DsC). ... дисс.автореф. – Фарғона, 2021. – Б.8.
3. Аҳмедов Ҳ. Ўзбек адабиётида насрий шеър: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 1995.
4. Эгамов Х. Шеърый асар тилини ўрганиш. –Т.,1973.
5. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол.фанлари д. дисс.автореф. – Тошкент, 1993.
6. Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири ва 90-йиллар бошлари ўзбек шеърыйатининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Т., 2004.
7. Мирзаев И. Шеърый матни лингвопоэтик талқин қилиш муаммолари. – Тошкент, 1992;
8. Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. –Тошкент, 1992.
9. Қодиров М. Навоийнинг тилшуносликдаги маҳорати // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. – Тошкент: Фан, 1977.
10. Қосимова М. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида): НД, Т., 2007.

11. Qo'ldasheva D. Furqat g'azallarining lingvopoetik tadqiqi. Filol.fanl.b-cha fals.d-ri diss.avtoref. –Farg'ona, 2023.
12. Рихсиева Г. Шеърятдаги гапларнинг актуал бўлинишида анафоралар ўрни: Филол. фан. номзоди ... дисс. - Т., 1999.
13. Тўланова Н. Тўқсонинчи йиллар ўзбек шеърятти тилидаги бадий санъатларнинг лисоний-услубий тахлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 2008.
14. Умирова С. Усмон Азим шеъряттида сариқ ранги лингвопоэтикаси / Конференция материаллари. 2014. – Б. 106-108.
15. Умурқулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари: филол.фанлари д-ри (DSc). Т.: 2020.
16. Умурқулов Б. “Поэтик нутқ лексикаси” –Т., 1990.
17. Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент, 2009.
18. ЙўлдошевМ. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2008;
19. Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри... дисс.автoref. – Тошкент, 2009.